

Navoiy viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim


2024/2025 o'quv yili boshiga

- I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

Navoiy viloyatida 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni **1 taga**, ya'ni **3,4 % ga** ko'payib, **30 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan **akademik litseylar** soni 2024/2025 o'quv yili boshida **3 tani** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan o'zgarmagan. Shuningdek **kasb-hunar maktablari** soni 2024/2025 o'quv yili boshida **11 tani** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan o'zgarmagan. **Kollejlar** soni esa 2024/2025 o'quv yili boshida **3 tani** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **1 taga (25,0 % ga)** kamaygan. **Texnikumlar** sonida esa o'sish qayd etilgan 2024/2025 o'quv yili boshida **13 tani** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **2 taga (18,2 % ga)** ko'paygan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Navoiy viloyati	3	11	3	13
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	3	1	1	3
Zarafshon	-	1	-	2
G'ozg'on	-	-	-	1
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	-	1	-	2
Konimex	-	1	-	-
Qiziltepa	-	2	-	1
Navbahor	-	1	1	1
Nurota	-	2	-	-
Tomdi	-	-	-	-
Uchquduq	-	1	-	1
Xatirchi	-	1	1	2

Akademik litseylarning barchasi Navoiy shahrida **3 ta** qayd etilgan. Kasb-hunar maktablari bo'yicha – Qiziltepa va Nurota tumanlarida har birida **2 tadan**, Navoiy shahar, Zarafshon shahar, Karmana, Konimex, Navbahor, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida har birida **1 tadan** qayd etilgan. Kollejlar bo'yicha – Navoiy shahar, Navbahor va Xatirchi tumanlarida har birida **1 tadan** qayd etilgan. Texnikumlar soni bo'yicha – Navoiy shahrida **3 ta**, Zarafshon shahrida, Karmana va Xatirchi tumanlarida har birida **2 tadan**, G'ozg'on shahar, Qiziltepa, Navbahor va Uchquduq tumanlarida har birida **1 tadan** qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)

[Akademik litseylar soni](#)

[Kasb-hunar maktablari soni](#)

[Kollejlar soni](#)


[Texnikumlar soni](#)

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Viloyatda 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni deyarli o'zgarmagan. Kasb-hunar maktablari qabul qilingan o'quvchilar soni oshgan, **3,4 ming nafardan 3,5 ming nafargacha** ko'paygan, ya'ni **2,9 % ga**. Kollejlarga qabul qilinganlar soni esa kamaygan **1,0 ming nafardan 0,3 ming nafargacha**, ya'ni **70,0 % ga**. Texnikumlarga qabul qilinganlar soni ham **3,4 ming nafardan 2,0 ming nafargacha**, ya'ni **41,2 % ga** kamaygan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Qabul qilingan o'quvchilar sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi

(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Navoiy viloyati	628	3 451	305	2 041
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	628	660	7	831
Zarafshon	-	341	-	330
G'ozg'on	-	-	-	25
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	-	264	-	107
Konimex	-	256	-	-
Qiziltepa	-	693	-	107
Navbahor	-	358	118	229
Nurota	-	380	-	-
Tomdi	-	-	-	-
Uchquduq	-	142	-	142
Xatirchi	-	357	180	270

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha barchasi Navoiy shahriga to'g'ri keladi (**628 nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha - Qiziltepa tumanida (**693 nafar**), kollejlari bo'yicha - Xatirchi tumanida (**180 nafar**), texnikumlar bo'yicha - Navoiy shahrida (**831 nafar**) eng yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni boshqa shahar va tumanlarga nisbatan kasb-hunar maktablari bo'yicha - Uchquduq tumanida (**142 nafar**), kollejlari bo'yicha - Navoiy shahrida (**7 nafar**), texnikumlar bo'yicha - G'ozg'on shahrida (**25 nafar**) eng past ko'rsatkichlar kuzatilgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni (jami)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Navoiy viloyatida 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni **2,6 ming nafarga**, ya'ni **16,4 % ga** kamaydi, **13,3 ming nafarni** tashkil etdi.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarga kelsak, 2024/2025 o'quv yili boshida ularning soni **1,2 ming nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **14,3 % ga** kamaygan. Shuningdek, kollej o'quvchilari soni ham kamaygan - ushbu davr mobaynida **1,1 ming nafarga** (ya'ni **64,7 % ga**) qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **0,6 ming nafarni** tashkil etgan. Texnikum o'quvchilari soni ham kamaygan - ushbu davr mobaynida **4,7 ming nafarni** tashkil etgan, 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **2,0 ming nafarga** kamaygan.

Yuqorida qayd etilgan vaqt oralig'ida kasb-hunar maktablaridagi o'quvchilar sonini ortishi kuzatilgan. 2024/2025 o'quv yili boshiga kelib o'quvchilar soni **6,8 ming nafarni** tashkil etgan, 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **0,7 ming nafarga**, ya'ni **11,5 % ga** oshgan.

Akademik litseylardagi o'quvchilarnig barchasi Navoiy shahrida (**1 200 nafar**) tahsil olgan. Kasb-hunar maktablarida o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida (**1 492 nafar**), kollejlarda bo'yicha Xatirchi tumanida (**391 nafar**), texnikumlar bo'yicha Navoiy shahrida (**1 637 nafar**) qayd etilgan.

Boshqa shahar va tumanlarga nisbatan kasb-hunar maktablaridagi o'quvchilar soni bo'yicha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumanida (**280 nafar**), kollejlarda bo'yicha Navoiy shahrida (**18 nafar**), texnikumlar bo'yicha esa G'ozg'on shahrida (**64 nafar**) kuzatilgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlarda	Texnikumlar
Navoiy viloyati	1 200	6 815	618	4 747
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	1 200	1 492	18	1 637
Zarafshon	-	669	-	994
G'ozg'on	-	-	-	64
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	-	528	-	217
Konimex	-	474	-	-
Qiziltepa	-	1 256	-	168
Navbahor	-	651	209	462
Nurota	-	785	-	-
Tomdi	-	-	-	-
Uchquduq	-	280	-	381
Xatirchi	-	680	391	824

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)


[Texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

So'nggi yillarda viloyatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarini bitirganlar sonida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2024- yilda, 2021- yilga nisbatan, ularning umumiy soni **8,3 barobarga** oshib, **7,5 ming nafarni** tashkil etgan.

Mazkur davr mobaynida kasb-hunar maktablarining bitiruvchilari soni **3,2 ming nafarga**, kollejlarniki – **0,3 ming nafarga (4,0 barobarga)**, texnikumlarniki esa **3,1 ming nafarga (16,5 barobarga)** oshgani qayd etilgan. Akademik litseylarning bitiruvchilariga kelsak, ushbu davrda ularning soni deyarli o'zgarmagan.

Bitiruvchilar soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)




Bitiruvchilar sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil uchun, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlari	Texnikumlar
Navoiy viloyati	572	3 217	380	3 349
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	572	1 007	11	1 011
Zarafshon	-	420	-	796
G'ozg'on	-	-	-	23
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	-	243	-	181
Konimex	-	193	-	-
Qiziltepa	-	446	-	26
Navbahor	-	161	64	286
Nurota	-	248	-	-
Tomdi	-	-	-	-
Uchquduq	-	225	-	604
Xatirchi	-	274	305	422

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)[Kasb-hunar maktablarining bitiruvchilari soni \(jami\)](#)[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)[Texnikumlarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)**V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)**

2024/2025 o'quv yili boshida Navoiy viloyatidagi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlarning (o'rindoshlarsiz) umumiy soni **956 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **236 nafarga**, ya'ni **32,8 % ga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni*(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)*

2024/2025 o'quv yili boshida akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **127 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **6,7 % ga** oshgan. Shuningdek, kasb-hunar maktablari va texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonida ham o'sish kuzatilmoqda. Kasb-hunar maktablarida ularning soni **185 nafarga**, ya'ni **67,3 % ga** ko'payib, **460 nafarni** tashkil etgan. Texnikumlarda esa ushbu ko'rsatkich **82 nafarga (33,7 % ga)** oshib, **325 nafarni** tashkil etgan.

O'z o'rnida, kollejlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni kamayganligi kuzatilgan. Mazkur davrda ularning soni **39 nafarga (47,0 % ga)** qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **44 nafarni** tashkil etgan.

Eng ko'p pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni kasb-hunar maktablari bo'yicha – Navoiy shahrida (**120 nafar**), kollejlarda bo'yicha – Xatirchi tumanida (**24 nafar**), texnikumlar bo'yicha – Navoiy shahrida (**114 nafar**) kuzatilgan. Akademik litseylar bo'yicha esa pedagog xodimlarning (o'rindoshlarsiz) barchasi Navoiy shahrida (**127 nafar**) kuzatilgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlarda	Texnikumlar
Navoiy viloyati	127	460	44	325
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	127	120	14	114
Zarafshon	-	46	-	68
G'ozg'on	-	-	-	7
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	-	34	-	13
Konimex	-	34	-	-
Qiziltepa	-	79	-	16
Navbahor	-	32	6	8
Nurota	-	42	-	-
Tomdi	-	-	-	-
Uchquduq	-	30	-	15
Xatirchi	-	43	24	84

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida pedagog xodimlar soni \(o'rindoshlarsiz\)](#)

[Akademik litseylarda pedagog xodimlar soni \(o'rindoshlarsiz\)](#)

[Kasb-hunar maktablarida pedagog xodimlar soni \(o'rindoshlarsiz\)](#)

[Kollejlarda pedagog xodimlar soni \(o'rindoshlarsiz\)](#)

[Texnikumlarda pedagog xodimlar soni \(o'rindoshlarsiz\)](#)

**VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy
tushuntirishlar va metama'lumotlar**

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisoboti – 1 o'rta ta'lim shakli "Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar hisoboti" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylarning statistik hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni va o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Navoiy viloyati
statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4
El. manzil: nv@navstat.uz
Tel.: 79-223-54-98

